



## ABDULHAMID CHO‘LPON HIKOYALARI TAHLILI.

*Musajonova Yulduz - Farg‘ona davlat universiteti  
filologiya fakulteti o‘zbektili yo‘nalishi 3-bosqich talabasi.*

**Anotatsiya:** Ushbu maqolada Abdulhamid Cho‘lponning hikoyachilikdagi mahorati, uning asarlarida aks etgan ijtimoiy-siyosiy muhit hamda inson ruhiyatining badiiy tasviri tahlil qilinadi. Adib hikoyalarida milliy uyg‘onish g‘oyalari, erkinlik va adolatga intilish motivlari yetakchi o‘rin egallashi yoritib beriladi. Shuningdek, Cho‘lponning obraz yaratish uslubi, til va uslub xususiyatlari, badiiy tafakkuridagi o‘ziga xosliklar ilmiy jihatdan asoslab beriladi. Maqolada yozuvchining ayrim hikoyalari misolida insoniy kechinmalar, ijtimoiy muammolar va davr ruhining ifodalanishi tahlil etiladi hamda uning o‘zbek adabiyotidagi o‘rni baholanadi.

**Kalit so‘zlar:** Abdulhamid Cho‘lpon, hikoya janri, badiiy tahlil, milliy uyg‘onish, ijtimoiy muhit, obraz yaratish, badiiy uslub, inson ruhiyati, erkinlik.

O‘zbek adabiyotida o‘zining betakror ijodi bilan muhim o‘rin egallagan Abdulhamid Cho‘lpon nafaqat shoir, balki mohir hikoyanavis sifatida ham e‘tiborga loyiqdir. Uning hikoyalarida davr muammolari, inson ruhiyati va milliy uyg‘onish g‘oyalari chuqur badiiy ifoda etilgan.

Abdulhamid Cho‘lpon XX asr boshlaridagi o‘zbek adabiyotining yirik namoyandalaridan biri bo‘lib, u jadidchilik harakatining faol ishtirokchisi sifatida millatning ma‘rifiy uyg‘onishi, erkinlik va taraqqiyot g‘oyalarini ilgari surdi. U she‘riyat, dramaturgiya va nasr janrlarida samarali ijod qilib, o‘zbek adabiyotining rivojiga katta hissa qo‘shdi. Cho‘lponning hayoti murakkab va ziddiyatlarga boy



bo‘lib, uning ijodi ham ana shu davr ijtimoiy-siyosiy muhitining aks-sadosi sifatida shakllangan.

Adibning hikoyalarida inson taqdiri, ijtimoiy adolatsizlik, milliy ong va ma‘naviy izlanishlar markaziy o‘rin egallaydi. Shu boisdan ham uning asarlarini o‘rganish nafaqat adabiy, balki tarixiy va ma‘naviy jihatdan ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Uning “Oydin kechalarda” hikoyasini tahlil qilamiz:

Bu hikoya Cho‘lpon nasrining cho‘qqisi hisoblanadi. Bu asar shunchaki hikoya emas, balki nasriy yo‘lda yozilgan mahzun bir she‘rga o‘xshaydi. Unda lirik kayfiyat va og‘ir ijtimoiy fojia o‘zaro qorishib ketgan. Asar “oydin kecha” tasviri bilan boshlanadi. Bu shunchaki mahorat emas, balki qahramonning ichki dunyosiga tayyorgarlikdir. Kechaning oydinligi qahramonning pokiza qalbi va orzularini ifodalasa, u yerdagi og‘ir sukunat va sovuqlik uning taqdiridagi fojiaiylikdan darak beradi. Tabiat qahramon bilan birga nafas oladi. Qizning ko‘z yoshlari oy nuri ostida marvariddek tovlanadi, bu esa estetik va ruhiy iztirobning birlashuvidir. Hikoyada bir necha detal tagdor ma‘noga ega.:

Oy: Erishib bo‘lmas orzu, go‘zallik va masofaviy sovuqlik ramzi.

Zulmat: Qizni qurshab olgan ijtimoiy muhit, qora taqdir va istibdod.

Yig‘i: Bu shunchaki alam emas, balki chorasiz qolgan millat va huquqsiz ayolning unsiz isyoni.

Hikoyaning markazida ayol kishining erkiga qarshi borish muammosi turadi. Cho‘lpon o‘z qahramonini ism bilan emas, balki umumiy bir fojia timsoli sifatida ko‘rsatadi. Jamiyatda bunday holatlar ko‘p bo‘lgan. Har bir inson ham o‘z sevganiga erishmagan. Natijada xuddi shunday sovuq muhit paydo bo‘ladi. Bu bilan biz o‘sha davr vaziyatini ko‘rishimiz mumkin.



Endi “Qor qo’ynidagi lola” hikoyasini ko’rib chiqamiz.

Bu uning eng ramziy va chuqur falsafiy asarlaridan biridir. Asarning sarlavhasidanoq kuchli kontrast boshlanadi. Bu shunchaki tabiat hodisasi emas, balki ikki dunyoqarash to’qnashuvidir.

Qor: Bu zulmat, turg’unlik, mustamlakachilik va eski, chirigan jamiyat ramzi. U sovuq, o’ldiruvchi va hamma yoqni bir xil rangga bo’yashga intiladi.

Lola: Bu uyg’onish, erk, yangi avlod va inqilobiy ruh ramzi. U oppoq qor bag’ridan qon rangida chiqib keladi, bu esa qurbonliksiz ozodlik bo’lmasligiga ishoradir.

Lola bahor keldi deb o’ylab, hali qor erimay turib bosh ko’taradi. Bu Cho’lpon yashagan davrdagi jadid ziyolilarining timsoli. Ular xalq hali uyquda ekanligida, ijtimoiy “qish” davom etayotganida uyg’onib, ma’rifat nurini sochmoqchi bo’ldilar. Natijada, “qor” uni bosib qoladi. Bu o’sha davrdagi qarag’onlar va tushunmovchiliklar qurboni bo’lgan millat fidoyilarining taqdiridir.

Asarda “lola”, ya’ni qizning ahvoliga achinmasdan iloji yo’q. Chunki o’z otasi uni eshonga berib yuboradi. Qiz endi 17 yoshga kirgan, eshon esa o’limga yaqin edi. Qanday qilib ota o’z qizini sovg’a tariqasida berib yuborishi mumkin? Hammani shu savol qiziqtiradi. Hammasiga aybdor o’sha davr muhiti aybdor. Xalqning shunday johilliklariga jim qarab turgan. Qanchadan qancha qizlar xuddi shunday ayanchli taqdirga duchor bo’lgan. Navnihollarimiz ochilmasdan so’lgan. Cho’lpon esa xuddi shunday vaziyatni tanqid ostiga olgan. Qizlarimizga ham erkinlik berish lozimligi, ular ham baxtli bo’lishga haqqi borligini ta’kidlagan.

Uning “Novvoy qiz” hikoyasi ham alohida ta’sirga ega. Uni ham ko’rib chiqsak:



O‘zbek adabiyotida o‘zining betakror ijodi bilan muhim o‘rin egallagan Abdulhamid Cho‘lpon nafaqat shoir, balki mohir hikoyanavis sifatida ham e‘tiborga loyiqdir. Uning hikoyalarida davr muammolari, inson ruhiyati va milliy uyg‘onish g‘oyalari chuqur badiiy ifoda etilgan

Hikoyaning markazida novvoy qiz obrazi turadi. U dastlab halol mehnat qilib, onasini boqayotgan pokiza va sodda qiz sifatida tasvirlanadi. Biroq uning hayoti keskin o‘zgarib, xo‘rlanish va zulm girdobiga tushadi. Matnda qizning “ezilgan yurak, charchagan gavda” holatiga kelib qolishi uning nafaqat jismoniy, balki ruhiy sinishini ham ko‘rsatadi.

Asarda sud jarayoni tasviri alohida ahamiyatga ega. Sud — adolat ramzi bo‘lishi kerak bo‘lgan joy — bu yerda fojeaning yana bir ko‘rinishiga aylanadi. Qiz o‘z boshidan kechirgan dahshatlarni aytib berishga urinadi, ammo bu og‘ir xotiralar uni larzaga solib, gapini yakunlay olmay yiqilishiga sabab bo‘ladi. Shu orqali muallif ayol qalbida kechayotgan iztirobni nihoyatda ta’sirli tasvirlaydi.

O‘lmasboy obrazi esa jamiyatdagi axloqsizlik va zo‘ravonlik timsolidir. U nafaqat bir insonning hayotini barbod qiladi, balki jamiyatdagi adolatsizlikni ham ochib beradi. Shu bilan birga, sud atrofidagi tomoshabinlar va odamlarning befarqligi ham tanqid ostiga olinadi. Hikoyada ramziy tasvirlar ham muhim o‘rin tutadi. “Dengiz”, “qirg‘oq”, “tog‘” obrazlari orqali muallif jamiyatdagi kuchlar, qarama-qarshiliklar va fojeaviy o‘zgarishlarni badiiy ifodalaydi. Ayniqsa “tog‘ yiqildi” iborasi jamiyatning ma’naviy qulashini anglatadi. “Novvoy qiz” hikoyasi orqali Cho‘lpon ayol taqdirining achchiq haqiqatini ochib beradi. Asar o‘quvchini befarq bo‘lmaslikka, adolat va insoniylik haqida o‘ylashga undaydi. Muallifning asosiy g‘oyasi shundan iboratki, ayolni himoya qilmagan jamiyatning o‘zi ham barqaror bo‘la olmaydi.

Xulosa qilib aytganda, Abdulhamid Cho‘lpon hikoyalari o‘zbek adabiyotida inson ruhiyati, ijtimoiy muammolar va milliy uyg‘onish g‘oyalarini chuqur badiiy



talqin etgan muhim asarlar sirasiga kiradi. Yozuvchi o‘z hikoyalarida oddiy insonlar hayoti orqali jamiyatdagi adolatsizlik, tengsizlik va ma’naviy izlanishlarni yuksak mahorat bilan ochib bergan.

Xususan, “Novvoy qiz” kabi hikoyalar misolida muallif insoniy fazilatlar — sabr, halollik va mehr-muruvvatni ulug‘laydi hamda o‘quvchini hayot haqiqatlari haqida mushohada yuritishga undaydi. Cho‘lponning badiiy uslubi, obraz yaratish mahorati va psixologik tasvir vositalari uning hikoyalarini yanada ta’sirchan va dolzarb qiladi.

Shu bois, Cho‘lpon hikoyalarini o‘rganish nafaqat adabiy, balki ma’naviy va tarbiyaviy jihatdan ham muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ular bugungi kunda ham o‘z qadr-qimmatini saqlab qolmoqda.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Cho‘lpon. Asarlar. Uch jildlik. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi NMIU, 1994.
2. Ozod Sharafiddinov. "Cho‘lpon" (Ma’naviy chizgilar). – Toshkent: Ma’naviyat, 1991.
3. Naim Karimov. "Cho‘lpon". – Toshkent: Ma’naviyat, 2003
4. Ibrohim Haqqul. "E’tiqod va ijod". – Toshkent: Yosh gvardiya, 1990. (Cho‘lpon she’riyati va nasridagi ruhiyat tahlili).
5. Umarali Normatov. "Qalb olovlari". – Toshkent: G‘afur G‘ulom nashriyoti, 1986.
6. Dilmurod Quronov. "Cho‘lpon hayoti va ijodiy merosi". – Toshkent: O‘qituvchi, 1997.